

Жадид

Tilda, fikrda, ishda birlik!

2025-yil 24-yanvar

№ 4(56)

www.jadid.uz



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadid_uz



@Jadidmediauz



@Jadid_rasmiy



@Jadid_uz

TOPILMA


Samarqandlik jadidlardan biri, o'z vaqtida munaqqid sifatida tanilgan Vadud Mahmud (1897–1975) quyidagi asarida o'z ustozi Mahmudxo'ja Behbudiyning dunyoqarshasi, amalga oshirgan ishlari hamda Samarqand muhitidagi jadidlар harakati bilan bog'liq voqealarni esga oladi. Behbudi faoliyatining matbuot, kutubxona, usuli savtiya maktablari, mohir siyosatchilik bilan bog'liq qirralari haqida tarixiy sharoit, muayyan shaxslar va voqealar bilan bog'liq holda hikoya qilinadi. Mahmudxo'ja Behbudiy boshchiligidagi jadid ziyyolarining matbuot nashrlari va ularni chop etishdagi moddiy qiyinchiliklari hamda ibratga munosib fidoyiliklari bayon qilinadi.

"Mahmudxo'ja Behbudiy" deb nomlangan ushbu xotiralar o'n ikki varaqlik to'rtta daftarga kirill yozuvida yozilgan. Bizningcha, muallif bu yodnomani o'tgan asrning 70-yillarda, umrining oxirlarida yozgan bo'lsa kerak. Chunki ayrim o'rnlarda jumlarining tugallanmay qolishi yoki so'z oxiridagi qo'shimchalarining tashlab ketilishi holatlaridan uning juda shoshilinch ravishda bitilgani seziladi.

Muhim jihat shuki, mazkur tarixiy manba Behbudiy va uning davri ziyyolari, ularning matonat bilan olib borgan kurashlari xususida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini berishi mumkin.

Ushbu asar matbuotda ayrim juziy qisqartirishlar bilan ilk bor e'lon qilinmoqda.


Nashrga tayyorlovchilar



MAHMUDXO'JA

BEHBUDIY

Vadud MAHMUD



Mahmudxo'ja Behbudiy Samarqanda, balki o'sha zamondagi Turkistonda birinchi taraqqiyarvar, birinchi marotaba o'z tashabbusi va o'z xarji (mablag'i) bilan gazet chiqarib, shu o'lkanning uyg'oni shiga sabab bo'lgan. U zamonlar gazet nima, olamda nima ahvolot bo'lib turubdur, hech kimni qiziqtirmaydigan bo'lgan. Behbudiy shahardan shaharga, qishloqdan qishloqqa yurub tashviqot qilib, gazet va jurnaliqa obuna yozdiraturgan bo'lgan.

Behbudi yana shu maqsad bilan o'z pulidan bir kutubxona-biblioteka ta'sis qilgan. Bu kitobxonani turli kitoblar bilan uch ming adadga yaqin to'l-dirgan va o'qiturgan tolbigra yaqin va oson bo'sin deb Registerning ro'baro'sida bir boloxonada ijara pulini, qorovul, kitobdor oyligini, mavojibini o'z cho'ntagidan berib turgan. Bu kitoblar o'sha zamonning oltin puli bilan olingan bo'lgan.

U zamonlar bizning yurt odamlari mullalar ta'siri ostida bo'lganidan

bolalarini yangi maktabga va rus maktablariga bermasdir. O'g'li Maisudxonni gimnaziyaga berib, unga maktab formasini kiydirib, shahardan shaharga obib kor'satib, odamlarning bolalarini rus maktablariga o'qutishiga targ'ib qilgan.

Behbudi turli kitoblar tuzub tarqatgan. U zamonning ahvoli nazarda tutilsa, bir kitob agar ming nusxa bosisa, bu mijdorning o'ndan bir qismining sotilishi qiyin bo'lgan. Shuning uchun borsdir'on kitoblari, albattra, zarardon boshqa natija bermaytirgan bo'lgan. "Samarqand" gazeti qancha tiraj bo'lmasisin, Samarqand shahrinin o'zida yuz nusxasi zo'rg'a sotilaturg'an bo'lgan. Buxoro, Xo'jand, O'rategpa, Konibodom va boshqa turkiyabzon shaharlarda ham o'n-yigirma nusxa tarqalib, boshqa nusxalari taxlanib qolatirg'an bo'lgan.

Muallim Shakuriy maktabida men yordamchi muallim (alpha) bo'lib ishlab yurgan chog'larim edi. Bir

kun meni birga obib shu gazetning idorasiga bordilar. Hozir yodimda qolq'an Reshetnikov ko'chasida yangi yasalg'an bir binoga kirdik. Katta bir uy, uy to'rida bir stol orqasida gazetning muharriri Behbudiy (ko'zlariga aynak taqqan) o'tirgan, bir tomonda gazetning tarjimon Saidrizo Alizoda, boshqa tomonda gazetani tarqatuvchi Hoji Muin Shukrullo o'g'li adreslar yozmoq bilan mashq'ul. Mana shu yerda gazetaga obuna bo'lib qaytdik.


Bu esa menim hayotimda muhim bir hodisa tarzida jilyalandi. Chunki u zamonlar kim bilar, Samarqand kabi katta shaharda gazetga obuna bo'lib, gazetxon sifatiga noil qancha kishi bo'lgan. Haftada ikki-yoki uch karra chiqadigan gazetni maxsus pochtalyon tashib keltirib berib ketar edi.

Shular qatorida men ham bor edim. Va bu mening uchun zo'r bir iftixon edi.

(Davomi 3-sahifada). >

O'ZBEK KINO SAN'ATINING DARG'ASI

"...Shuhrat Abbosov o'z filmlarida xalqimizni butun dunyoga bag'rikeng, saxovalti xalq sifatida, o'zbeklarni munis, mushfiq millat sifatida tarannum etdi. Shu tufayli bu filmlarni ko'rgan, undan bahramand bo'lgan dunyoning qaysiki chekkasidagi tomoshabin bo'limasin, o'zbek xalqi haqida yorqin, niroyatda iliq taassurotlar oladi..."



(5-sahifada o'qing). >


JARAYON

"YER BU – ULKAN SIR"

Sayyoramizda yil davomida yuz minglab turli sezimidagi zilzilalar sodir bo'libadi. Ularning aksari faqat seismograflargina ilg'aydigan tebranishda bo'lib, oddiy aholi payqaydig'an darajaga yetmaydi. Lekin har qanday yer silkinishi tirk mayjudotni tahlikaga solishi tayin.

Eramizning 115-yilida 260 ming rimlik umriga zomin bo'lgan Antioxiya; 856-yili 200 ming fors aholisining yostig'ini quritgan Damg'on, 1556-yili 830 mingdan ortiq xitoylikni hayotdan olib ketgan Shensi fojasini va boshqa ko'plab mudhish zilzilalar haqida tarixiy ma'lumotlar bugungacha yetib kelgan.

2023-yilning 6-aprelida Turkiyada sodir bo'lgan zilzila inson savqi tabiysiiga o'rashgan xavotirlarning o'rni ekanini isbotladi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining G'ani Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti direktori, geologiya-mineraloziya fanlari doktori, professor Vohidxon Ismoilov bilan suhatimiz seysmik xavfiszligimiz borasida bo'lib o'tdi.



– Vohidxon aqa, 5,2 Rixter shkalasi bo'yicha sodir bo'lgan mash'um Toshkent zilzilasi sabab O'zFA tarkibida ayni paytda siz rahbarlik qilayotgan Seysmologiya instituti tashkil etilgan. Bu institut qariyb 60 yillik faoliyati davomida qanday yutuqlarga erishdi?

(Davomi 2-sahifada). >

TAQDIMOT



IJOD VA FAN MAJNUNLARI

Oybek va Naim Karimov. Bu ikki ism ko'p o'rnlarda ketma-ket kelishi bejiz emas. Chunki adib Oybek ijodi va shaxsiyati haqidagi aksar tadqiqotlar, fundamental kitoblar olim nomi bilan bog'liq bo'lsa, adabiyotshunos Naim Karimov ilmiy faoliyatining salmoqli qismi bevosita Oybek fenomeni, uning ijodi laboratoriysi xususidadir. Poytaxtimizdagi O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida o'zbek adabiyoti va fanining ana shu ikki buyuk vakili – Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek hamda Naim Karimov hayoti va faoliyatidan hikoya qiluvchi ikkita hujjatlil film taqdimoti bo'lib o'tdi.

(Davomi 5-sahifada). >

BUGUNGI SONDA:

O'RGANISHDA YANGICHA YONDASHUV

"Konferensiya doirasida ma'rifatparvar olim, milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasini bo'lgan allomaning hayotiga bag'ishlangan "Behbudiy fenomeni" kitobi taqdimoti ham o'tkazildi..."

5
s

BIRINCHI MILLIY YURIST

yoxud o'z huquqini himoya qilolmagan Tosho'latbek Norbo'tabekov

7
s

BIZNI YEMIRGAN ILLAT

TARAQQIYOTGA TO'G'ANOQ

Keyingi yillarda mamlakatimizda turmush darajasi farovonlashib, aholi daromadlari oshib borayotgani yaxshi, albatta. Biroq kishilarning asosiy mablag'i to'y-hasham, boshqalarga o'zini ko'rsatishdek havoyi maqsadlarga sarflanayotgani achinarli. Bugun hayotimizda ko'payib borayotgan oilaviy mojarolar, nizo-janjallar, ajralishlar, er-xotin o'rtaSIDAGI sovuqchilik sabablarini ham, aksariyat hollarda, aynan serxarajat to'ylarg'a, ular bilan bog'liq behad ortiqcha isrofgarchilikka borib taqalishi hech kimga sir emas.

(Davomi 6-sahifada). >

MULOHAZA

HALOKATNING SIRI NIMADA?

Qo'shiluvchilarning o'rni almashganda yig'indi o'zgaradi



Fransuz ma'rifatparvari Antuan Rivarolning bir gapi yangi dunyoning chalkash mohiyatini ochib tashlaydi. Bushunday: "Volter: 'Odamlar qanchalik ma'rifatli bo'lsalar, shunchalik erkindirlar', deb ta'lif bergandi. Uning izdoshlari esa xalqqa: 'Siz qanchalik erkin bo'lsangiz, shunchalik ma'rifatlidirsiz', deb uqtirdilar. Halokatning siri ana shunda!"




(Davomi 4-sahifada). >

Boshlanishi 1-sahifada.

— So'zni bizning hududlarga seysmologiyaning kirib kelishidan boshlasak. 1865-yilda chor Rossiysi Toshkentga bosqinchilik yo'li bilan kiradi. Ular ko'p yillard bu tinch, xavf-xatarsiz joyga egalik qilamiz, deb o'yashgan. Lekin uch yil o'tib, Toshkentda 6,3 magnitudali dahshati zilzila sodir bo'ladi. Bu vayronkor hodisa tabiiyki, zilzila sirlarini o'rganishni talab etgani va 1872-yilda Toshkentda ilk bor seysmologik uskuna o'rnatilgan. 1886-yilga kelib yanada kuchliroq yer qimirlashi ro'y bergach, bu hududni jiddiyroq tadqiq etish kerak ekan, degan vahima bilan o'sha davning takomillashgan zamonaviy uskunasi olib kelingan. Shu tariqa 1902-yilda Toshkentda birinchi seysmik stansiya barpo bo'ladi. Ana shu vaqtidan O'zbekistonda seysmologiya sohasidagi instrumental tadqiqot ishlari yo'lg'a qo'yilgan.

"YER BU – ULKAN SIR"

silkinishi qayd etildi. Bu Toshkent zilzilasidan ancha kuchli edi. Lekin hodisa haqida birov bilib, birov bilmagan. Chunki bu hodisa alla joyda, aholi yashamaydigan ochiq yerlarda sodir bo'ldi. Unda nega Toshkentdagi zilzila buncha talaftoli va vahimali bo'lgan dersiz?



Sababi, Toshkentda ayni aholi yashaydigan hududda yer qimirlagan. Bundan tashqari, uning o'chog'i juda sayoz joyashgan edi.

Bir narsaga e'tibor qaratish kerak, o'sha zilzilada beton yoki pishiq g'ishtli binolar buzilмаган. Asosan nobop qurilgan uylar, eski imoratlar qulagan.

Undan keyin ham O'zbekiston hududida kuchli yer silkinishlari bo'lib turdi. Masalan, 1976-yilda magnitudo 7,2 bo'lgan Gazli zilzilasini olsak, u shaharning deyarli barcha binolarini vayron qildi. Taassufki, o'shanda talafto katta bo'lgan.

1966-yilgi zilzila yurtimizda Seysmologiya instituti o'chilishiga turki bo'ldi. Birinchi galddagi vazifalardan biri, albatta, zilzilani mumkin qadar oldindan aytib berish, ya'ni prognoz masalarini o'rganish bo'lsa, ikkinchi – hududlarimiz bo'ylab seysmik xavfni baholash va uning xulosalarini qurilish qo'mitasiga taqdim qilib, shaharsozlik ishlari shunga mos xavfsiz olib borish bo'lgan.

Albatta, o'tgan oltimish yil ichida sohamizda juda ko'p tadqiqotlar amalga oshirildi. Aytish mumkinki, o'z vaqtida oshalmushum ilmiy kashfiyotlar ham qilinib, xalqaro miyosoda tan olining. Poytaxtimiz ostida, yer qobig'ining 1700-2200 metr chuqurligida senoman suvlar bor. Buni xalqimiz "Toshkent mineral suvi" deydi. O'sha paytdagi kuzatuvlar zilzila arafasida bu suv tarkibida har xil gazlarning anomal tarzda oshishini ko'rsatgan. Bu 1973-yillarda muhim kashfiyot bo'lib, dunyo olimlarini hayratda qoldig'an. Yer osti jarayonlarida shu suvlar tarkibida radon gazi oshishi zilziladan darak berishi o'sha



davning katta yangiligi deb e'tirof etilgan. Mazkur xulosa yer silkinishining prognoz imkoniyatlari rivojlanishiga turki bo'ldi. Shuningdek, institutimizda 70-yillarda juda katta ilmiy-amaliy ishlar bajarildi va 1978-yildagi Oloy, 1984-yildagi Pop zilzilarining yuz berishi ehtimoli oldindan bashorat qilindi. O'zbekiston hududida geomagnit maydonda yer qimirlashidan oldindi o'zgarish qonuniyatlar o'rganilishi izchil davom etyapti. Bundan boshqa amalga oshirilayotgan ishlar ham ko'p. Shu ma'noda institutimiz zimmasidagi vazifalarni uddalayapti, deb aytishimiz munqishtili.

— Toshkent zilzilasi 78 ming oilani boshpanasiz qoldig'an. Bugun osmono'par binolar va ko'p qavatlari turarjoylar qurilishi jadal ketayotgan bir paytda, ya'ni o'tgan yilning 17-aprelida Prezidentimiz "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi qarorni imzolagan edi. Ushbu qaror ijrosi yuzasidan sohada amalga oshirilayotgan ishlar qanday ketyapti?


— Zilzilaning turli darajasi, uning xavtug'dirish ehtimolini inobatga olish, qurilayotgan binolarning seysmik chidamliligi va mustahkamligini ta'minlash – dolzarb masala. Bugungi kunda institutimiz hududlar bo'ylab zilzila xavfini baholab berish imkoniga ega. Faqat qurilish kompaniyalari shu xavfga mustahkam tura oladigan loyihalarni amalga oshirishlari kerak.

Institutimiz 24 ta viloyat markazi va shaharlar uchun seysmik mikrohududlashirish xaritalarini ishlab chiqdi. Ular hozirgi kunda eski sovet davridagide makroseyismik ballarda emas, balki muhandislik

Ilgari Toshkentda 16 qavatlari 6 tagina monolit bino bor edi. Hozirgi kunda esa bunday binolar soni 100 dan oshib ketdi. O'sha davrda baland imoratlar qurilayotganida maxsus seysmik tadqiqotlar olib borilgan. Hozirda ham xuddi shu usuldagagi tekshiruvlardan foydalangan holda, 12 qavatdan yuqori bo'lgan har bir bino qurilishida obyekt joylashgan yeri maydoni bo'yicha geologik va seysmologik tadqiqot amalga oshiriladi. Binoni zilzila vaqtidagi kuchlanishga mo'ljalab qurish sharti bor. Biz beradigan ma'lumotlar quruvchi tashkilot uchun birlamchi va o'ta muhim hujjat vazifasini o'taydi. Bu xulosani olgandan keyin talabga javob beradigan loyiha ishlarinigina amalga oshirish kerak. Loyiha ishlari tasdiqlangach, o'z-o'zidan qurilish boshlanmaydi. Chunki hali bu ishning ekspertizi ham bor.

Vazirlar Mahkamasining 603-son qarori bilan ekspertiza ishlari ham Fanlar akademiyasi institutlariga topshirilgan. Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida ekspertlar guruhu loyihalarni har tomonlama o'rganib chiqib, shundan keyin gina qurilish ishlariiga ruxsat beradi. Bu guruh hozirgi kungacha O'zbekiston bo'yicha 260 ga yaqin bino va inshootni ekspertizadan o'tkazdi. Mayvud binolarni renovatsiya, ya'ni yo buzib, yoki qayta ta'mirlash masalalarini ham o'rganib chiqsak, yer silkinishi xavfiga qarshi puxta tayyorgarlik ko'rgan bo'lamic. Ana shundagina zilzila ssenariysi biz uchun unchalik qo'rinchili bo'lmaydi. Talafotlar nisbatan kamayadi.

Zilzila bu – avvalo, iqtisodiy talafto. Ehtimoliy zilzilaga tayyorgarlik ko'rish orqali davlat mablag'lari tejaladi.



parametrlarida, tebranish spektrlerida, cho'qqi tezlanishi maksimal qiymatlarda, ya'ni 1000-2200 metr chuqurligida senoman suvlar bor. Buni xalqimiz "Toshkent mineral suvi" deydi. O'sha paytdagi kuzatuvlar zilzila arafasida bu suv tarkibida har xil gazlarning anomal tarzda oshishini ko'rsatgan. Bu 1973-yillarda muhim kashfiyot bo'lib, dunyo olimlarini hayratda qoldig'an. Yer osti jarayonlarida shu suvlar tarkibida radon ko'rib qo'yish, ehtimoliy talaftolarning oldini olish.

— O'zbekiston, xususan, Toshkent – seysmologik faol hudud. Yaqin yillarda ichida yurtimizda seysmik xavfi haqida aniq ma'lumot bera olasizmi?

— O'zbekiston O'rta Yer dengizi seysmogen zonasida joylashgan. Shuning uchun zilzilalar doimiy sodir bo'lib turadigan hudud hisoblanadi. Yer yuzida uchta seysmik

kamar bo'lib, O'zbekiston uning ikkinchisi ichida joylashgan. Bu nazariy jihatdan hududda 8-9 balli zilzilalar bo'lishi mumkin ekanini tasdiqlaydi. Hatto bizning institutimiz ham zilzila o'chog'ida joylashgan. Farg'on a vodiysi esa boshqa viloyatlarga qaraganda seysmik faol hududdir. Tagzaminimizda tektonik yoriqlar va katta seysmik kuchlanishlar bo'lgani uchun tez-tez zilzila bo'lib turishi muqarrar. Chunki bir tomonдан Yevrosiyo, ikkinchi tomonдан Hindiston plitasi o'tasidagi bir-biriga qarama-qarshi harakat natijasida yuzaga keladigan katta yer osti zo'rqiqlari yangi silkinish o'choqlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Zilzila o'chog'idan chiqqan to'lqinlar qanday tarqaladi, baland imoratlarga, binolar va inshootlarga qanday ta'sir ko'rsatadi, buni o'rganamiz. Qisqa muddatlarda zilzilalarni prognoz qilishga hozircha dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlari ham qodir emas. Chunki Yer bu – ulkan sir.

— Xorijiy davlatlar bilan seysmologiya taraqqiyoti yo'lidagi ilmiy-amaliy aloqalar borasida gapplashsak...

— Boshqa mamlakatlarga borganimizda biz guvoh bo'lgan muvaffaqiyatlar asosida o'z faoliyatimizni tahlil qilamiz. Mana, yaqinda Yaponiyada bo'lib, bizga aloqador yettipta universitet va markazga bordik.

Ma'lumki, dunyodagi eng kuchli zilzilarning 20 foizi Yaponiyada sodir bo'ladi. Bu orol davlatda mavjud 3000 ga yaqin tekton yeri yoriqlari harakatdagi va harakatsiga bo'lindi. Biz ham o'zimizdagagi yeri yoriqlarini toifaga ajrat bilishimiz shart. Buning uchun esa har bitta tekton yeri qurilishning pasportini yaratishimiz kerak. Ularda ana shunday yoriqlar uchun 232 ta pasport yaratilgan ekan. Biz ham bu ishlari o'zimizga tatbiq qildik. Mana, ikki yildan buyon bitta laboratoriya alohida shu vazifa bilan shug'ullanayti. Hozirgi kungacha Farg'on a vodiysi va Toshkentoldi hududida 36 ta faol tekton yeri yoriqlar pasportini yaratdik. Albatta, bu hali to'liq emas.

— Bu nimaga kerak?

Zilzila o'choqlari aynan shu tektonik yeri yoriqlarida hosil bo'ladi. Agar biz bu yoriqlarning joylashuvini aniq bilsak, zilzila ssenariysini ishlab chiqishga erishamiz.

Yaponlarning 30 million aholi joylashgan, hududiy jihatdan katta, shuningdek, binolari juda baland qurilgan Tokio shahrining kuchli zilziladagi holatini modellashtirganini ko'rdik. Butun dunyo ilm ahli modellashtirish tizimiga o'tishga harakat qilyapti. Shu jihatdan institutimiz ham shu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni boshladi. Lekin faqat bizning izlanishimiz bilan ish bitmaydi, bunga Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, Arxitektura va qurilish universiteti, Turin politeknika universitetining Toshkent filiali, O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi ham jalb qilingan. Hozir ana shunday katta hajmdagi amaliiy ishlarni bajaryapmiz.

Seysmologiya – eng dolzarb va o'ta muhim soha. Bugungi kunda institutda 129 nafar xodim faoliyat olib boryapti. Ular orasida akademik, fan doktori, professor-o'lidlardan tortib, ilmiy izlanishdagi o'lub tadqiqotchilar seysmologiya rivojiga hissa qo'shmoqda. Bu sohaga qiziqayotgan yoshlarimiz ham ko'p.

— Domla, mazmunli suhbatingiz uchun gazetxonalar nomidan minnatozorlik bildiramiz. Yurtimiz tinch, zaminimiz osoyishta, osmonimiz musaffo bo'sin!

Muhayyo RUSTAM QIZI suhbatalashdi.

Taxminlarga ko'ra, 2027-yilga kelib davlat miyosidagi mashg'ulot maydonlarida kamida 1000 ta inson qiyofasidagi robotlar tayyorlanadi.

TALABA ROBOTLAR

Xitoyning Shanxay shahridagi Pudong hududida turli xil inson qiyofasidagi robotlar uchun mo'ljalangan ilk ta'llim markazini ochdi.

Bir vaqtning o'zida turli o'cham va vazifaga ega 100 dan ortiq inson qiyofasidagi robotlarni sig'dira oladigan mazruk inshoot shaharning ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarining bir qismi hisoblanadi. Sanoat manbalari ma'lumotiga ko'ra, soha ko'lamining 2029-yilga kelib 75 milliard yuanga (10,31 milliard AQSh dollarri) yetishi kutilmoqda.



JAHON AYVONIDA

O'ZBEK ALLOMALARI E'TIROFDA

CNN O'zbekistonning buyuk allomalar haqida turkum maqolalar chop etdi. Unda Ahmad al-Farg'oniy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi allomalar o'zbek millatiga mansub bo'lgani alohida e'tirof etilgan.



Algebra fani asoschisi sifatida qayd etilgan Al-Xorazmiy haqida fikr bildirilar ekan, uning "Al-kitob al-muktasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" asari matematikaning rivojiga qo'shgan hissasi alohida qayd etiladi. "Har safar smartfon yoki kompyuterdan foydalanganimizda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosiga duch kelamiz", deyiladi maqolada.



Boshlanishi 1-sahifada.

Behbudiyar, ya'nı bu kishining fikr-doshlari eski shaharda hovli-joylari bo'lsa ham mahalladagiilarning, qo'shni-larinining yomon qarashlaridan ozorlanib, bezor bo'lub qochib ketishga majbur bo'lgan edilar.

Va shu yuqorida aytligan Reshetnikov ko'chasida joylashib biroz tinchlanish chorasiqa kirishganlar. Shulardan bir necha hovli hali shu ko'chada yodgor qolgandir.

Behbudiy ham yangi ochilg'on maktabalar uchun, ham umumiylar ma'lumot oluvchilar istifodasi uchun turli mavzuda kitoblar, risolarlar yozgan. "Muntaxabi jug'rofiyai umumi", "Muxtasari tarixi islam", "Madxali jug'rofiyai umroni", "Muxtasari Rusiya tarixi", "Yangi hisob" darsligi shu jumladandur. Bularidan boshqa "Oyina" jurnalida "Sayohat xotiralar" unvoni ostida o'zining ko'rganlarini

aholisining aksariyati shular nufuzi ostida edilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zini shularga yaqin tutub shu tashkilotning ishlariqa ishtirok qilib turardi.

Birinchi jihat shulki, u mufti va mulla edi, o'zining shu charkadan ekanini va dinch bo'lish va dindor bo'lischening hayot va taraqqiyotga mone' va to'sqin emasligini u esklargiga talqin qilib turish bo'lsa, ikkinchi jihat, ularning orasida bo'layotgan ahvolotdan xabardor bo'lub turish bo'lgan. U zamonlar "Sho'royi islam" o'zini yurting yagona hokimi sanardi. Chunki saylovlardaga hamma



Behbudiy uy-muzeyi. Samarqand.

nashr etgan. Bularidan boshqa o'shal zamonlarda chiqatqurgan gazeta va jurnallarga ishtirol etgan. Ostroumov tomonidan, ya'nı Rusiya davlatining axboroti gazeti, Orenburgda chiqatirgan "Sho'ro" majallasiga, "Tujor", "Xurshid"-larga maqlolalar yozib turgentur.

Behbudiy anchagina yaxshi madrasa tahsili ko'rgan, multifilik darajasiga yetgan odam. Boshida oq sallasi bor, lekin boshqa mulla-muftilarnikidek katta emas, o'rtaча. Mullalar kiyaturning katta uzun choponlar o'rniya yarmi yevropacha, no'g'aycha kamzul ustidani paltoga o'xshagan chakmon kiyar edi. Bu chakmonning ichki tomonida uzun kissa (cho'ntak) va unda doimo gazet, jurnal bo'lardi. Uyiga kirsangiz ustoliniq ustida har tomonidan kelgan gazet-jurnallar to'la: Misrdan Kelatirgan "Al-ahram", Kalkuttadan chiqatirgan "Suri Isrofil", Tehrondan chiqadirgan "Eroni nav", "Chehranamo", "Parvarish", "Sabur-rashodal alamul-islom", Istanbulda chiqatquran "Tanin" va jurnallardan "Siroti mustaqim", "Shaxbol", "Sarvati funun" kabilar bo'lar edi. Bular xorijdan kela-durganlari edi. Rossiyaning ichidagi gazetalardan "Tajrimon", "Vaqt", "Iqbol"lar kelib turar edi.

Behbudiy doimo ko'ziga aynak tutar va buning sababi albatta ko'p mutolaa natijasida ko'zining kuchsizlanishi edi. Xususan, kutubxonasi ko'p boy edi. Men undan ko'p ayojib – nodir kitoblar so'rabb olib o'qirdim. Hech bi zamon rad qilmas edi. Doim yaxshi narsalar topib berib turar edi. Yaqin kunlarga undan olganim Istanbul bosmasi "Tadrisoti ibtidoiya" tarbiyaviy majmua menda yurardi. O'g'linning gimnaziyada o'qiganini yuqorida aytgan edi. Qizi Surayyo begin ham yaxshigina savoldi, rus tili bilan ham tanishdur. Hozir anchagina qarib qolgan. Behbudiyning uch o'g'li bor edi: Mas'ud, Maqsud, Matlub. Mas'uddan to'rt nevarasi hozir turli ishlarda, idora, nashriyot va ilmiy sohalarda mashg'uldirler.

Yugorida Behbudiyning manoqiba tarzida gazet, jurnallar, kitobxona va boshqa nashriyotni o'z kissasidan xarajatini to'lاب chiqarg'anini aytdik. Bir kitobxona uchun vaqf tarzida topshirgan 3000 mujallad kitobdan va u ming qimmatini 10 000 so'mga taxmin qilgan edi, degan masala albatta, qiziqarliidir. Olgan ma'lumotlarimizga qaraganda, Samarqandning atrofida bo'lak-bo'lak yerlari bo'lgan va buni iikki yuz, uch yuz tanob, balki ko'prak taxminlagانlar. Mirzaxoja Behbudiy haqidagi yozgan risolasida uni "sudxo'r" deb tanitidi. Agar sudxo'r shunday bo'laturgan bo'lsa, koshki bunday sudxo'rlar ko'prak bo'saydi!

Inqilob yillarda Samarqandda uch firqa tuzulub davom qilmoqda edi:

1. Sho'royi islam;
2. S.R. Sotsial revolyutsionerlar;
3. Bolsheviklar.

"Sho'royi islam" hing boshlig'i yuqorida necha karra zikr etilgan Qozi Iso hoji bo'lub, mullolari va boylar, amaldorlardan iborat edi. U zamonlar Samarqand

firqalardan ortiq ovoz egasi edi. U kunlar "Sho'royi islam"ning birdan bir raqibi Ittifoq partiysi – ishchilar va yangi fikrlar tarafodori bo'lganlar partiysi edi. Saylovlardagi ikkinchi raqamlari quti tarafodori shular edilar. U zamonlarning ikkinchi qora partiysi shu Ittifoq edi. Ushchini partiya S.R.lar – Sotsial revolyutsionerlar edi. Bu partiyaning Samarcand bo'limi boshlig'i Mardonqul Shomuhammadzoda, bi zamonlar "Hurriyat" gazetasining muharriri edi. Behbudiy bilan Qarshida o'dirilgarning biri shu kishidir. Bu uch firqasi bir-birovi bilan talashdarilar. Mitinglarda, yig'inlarda, bir-birovini tangid qilar, yomonlardilar.

Shunday bir voqeoa esimda qolqandir: bir kuni muallim Shakuriy bir ish bilan meni Mahmudqul O'runkoy hovlisiga yubordilar. Bu kishi o'z hovlisida maktab oshib muallim xarajatini tutub yurgan yosh boylardan edi. Bu kishining otasini O'runkoy kupas (kupes) der edilarkim, savdo bilan shug'ullanatirgan odamlardan bo'lgan. Shul kuni bu kishining uyida uy egasi bilan birga katta sandali atrofida o'tirgan uch kishini ko'rdim: Behbudiy, Akobir, Mardonqullar edilar. Shul kunning o'zidayoq Regis-tonda bo'lgan katta mitingda Akobir bilan Mardonqul bir-birovini xorlab o'z partiyalarini yoqlab talashgan edilar. Menim taajibimga sabab bo'ldi. Bu ne degan voqeoa edikim, kunduzi bu ikki muxoliflar va yana bir muxolifsimon – "Sho'royi islam" a'zosini Behbudiy bilan bir yerga yig'ilishib, choy ichishib chaq-chaqlashib o'titsalar! U zamonlar men bu sinring ma'nisosiga bormas edi. Keyincha Behbudiyning atvori va ahvoli bilan tanishgan so'ng uning tadbirilari kananini angladim.

U kunarlar bu uch kurashib turgentirganlar qaysisi go'lib keladir, aytilish qiyin edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Behbudiy o'zi "Sho'royi islam"da, Mardonqul S.R.da, Akobir bolshevikkorligi bo'lgan Ittifoqda turar va kuzatar edilar. Qaysisi zo'r chiqsa har birida "o'zlar"ning odami bor bo'lganidan shu yurting manfaatini mudofaa qilatirgan odamlari bo'lar edi... Magasid bor edi – shul qavmining ajanabilari qo'lida ezilmasligi...

Aslida asosan Behbudiyning o'zi "Ittifoq" rahbarlaridan edi. Bu ehtiyojkorlik u kunnardagi nomalum ahvolotdan vujudga kelgan edi. Qo'qon Mux-toriyatiga ishtiroki u kungi umumiylar harakatning savqi ifodasi edi. U kunnarda Maskvadan eskan bir ozodlik shamoli ta'siri bilan vujudga kelgan bir harakat edi. Bu harakat yolg'iz bizda emas, butun boshqa mayda millatlar – Rus davlati qo'l ostida bo'lgan Gurjiston, Armaniston, Ozarbayjon, Tataristonlarning hammasida mustarak edi. Qo'qon muxtoriyat hukumatiga tarqatilgan so'hg uning harbiya vaziri Madaminbekning qo'shini shahardan chekilib tog'larga, dalalarga tarqalib partizan urushlarini bir necha

yillar davom ettirdilar. Sovet hukumati kuchlanib o'nashib oлган so'ng bu harakatlar bosilib ketdi va yurt tinchidi.

Feravl inqilobining birinchi haftasi edi. Birinchi kunlari demadim, chunki inqilob xabarini Turkiston genaral-gubernatori uch-to'ri kun saqlab nima bo'lar ekan deb aniqlab, so'ngra Turkistonga e'lon etgan. Samarqand shahrining hozirgi ozodlik maydonining sharqiyjanubiy burchagi ro'paro'sida bo'lgan ofitsierlar klubida har kun kechqurunlar miting bo'lar edi. Biz ham har kuni ishdan bo'shangach, hurriyat va ozodlik taronalarni eshitmag uchun borar edik. Zal doimo to'la edi, turli-tuman xaloyiq bir yondon kelar, bir yondon chiqib ketar edi. To'da orkestr o'yantirgan baland sahnada Qozi Haydarbek va yana bir volostnoy bo'lub yurgan kishi ismini unutdim, qo'llarida yozilgan bir oq qog'ozni navbatba navbat o'qir edilar. Unda Nikolayning taxtdan tushurlagini va zolimdan xalqning qutulg'ani va endi barcha millatarning ozodlikka chiqqani, har millatning o'z itxiyoriga o'ziga hukumat tuzishga itxiyorli bo'lgani tantanalni sur'atda chiroylar iboralar bilan yozilg'an. Uni o'qub eshitiruvchilarning lablari tabassum va chehralarida shodlik alomatlari ko'runib turar edi...

Bundan bir-ikki yilgina burun shu maydonda 1916-yilda general Kuropatkin kelib do'q urub, urush jabhasiga yordan berish uchun mardikor kerakligini eshitgan xalq bugungi yumshoq bashoratlardan shodlanar va ko'ylagiga sig'mas edi. Va o'zlarining qarindoshurug'larining tezdan majburiy harbiy xizmatdan qaytib kelishini shodlik bilan kutardilar. Ehtimol shu qozi Haydarbek qo'lida bo'lgan va har kecha takror-takror o'qilatirgan "Ozodlik bashorathomasi" Behbudiy qalamidan chiqqan edi. Behbudiyning fikrdschlari orasida mutafakkir, taraqqiyopar bor bo'lsa ham ularning aksari rus maktab va madrasalarida tahsil ko'rgan bo'lub, o'z tilinari bilatirgan va tahrir quvvati borlari ko'runmas edi...

Mullalar orasidan bo'lsa bu mavzularda qalam yuritirganlar bor edimikin, ko'zim yetmaydi. Ne bo'lsa ham biz har oqshom yangi shahar ko'chalari bo'yab yurub shul klubga kelib zavqlanib, yoqimli yaxollar bilan uyguga ketar edi. Va kelgusi kunning kechini kutardik, chunki yana yangi xabarlar, yangi voqealar eshitgimiz kelardan.

Bundan o'sha qora partiysi shu Ittifoq edi. Ushchini partiya S.R.lar – Sotsial revolyutsionerlar edi. Bu partiyaning Samarcand bo'limi boshlig'i Mardonqul Shomuhammadzoda, bi zamonlar "Hurriyat" gazetasining muharriri edi. Behbudiy bilan Qarshida o'dirilgarning biri shu kishidir. Bu uch firqasi bir-birovi bilan talashdarilar. Mitinglarda, yig'inlarda, bir-birovini tangid qilar, yomonlardilar.

Bundan o'sha qora partiysi shu Ittifoq edi. Ushchini partiya S.R.lar – Sotsial revolyutsionerlar edi. Bu partiyaning Samarcand bo'limi boshlig'i Mardonqul Shomuhammadzoda, bi zamonlar "Hurriyat" gazetasining muharriri edi. Behbudiy bilan Qarshida o'dirilgarning biri shu kishidir. Bu uch firqasi bir-birovi bilan talashdarilar. Mitinglarda, yig'inlarda, bir-birovini tangid qilar, yomonlardilar.

Bundan o'sha qora partiysi shu Ittifoq edi. Ushchini partiya S.R.lar – Sotsial revolyutsionerlar edi. Bu partiyaning Samarcand bo'limi boshlig'i Mardonqul Shomuhammadzoda, bi zamonlar "Hurriyat" gazetasining muharriri edi. Behbudiy bilan Qarshida o'dirilgarning biri shu kishidir. Bu uch firqasi bir-birovi bilan talashdarilar. Mitinglarda, yig'inlarda, bir-birovini tangid qilar, yomonlardilar.

Bundan o'sha qora partiysi shu Ittifoq edi. Ushchini partiya S.R.lar – Sotsial revolyutsionerlar edi. Bu partiyaning Samarcand bo'limi boshlig'i Mardonqul Shomuhammadzoda, bi zamonlar "Hurriyat" gazetasining muharriri edi. Behbudiy bilan Qarshida o'dirilgarning biri shu kishidir. Bu uch firqasi bir-birovi bilan talashdarilar. Mitinglarda, yig'inlarda, bir-birovini tangid qilar, yomonlardilar.

Bundan o'sha qora partiysi shu Ittifoq edi. Ushchini partiya S.R.lar – Sotsial revolyutsionerlar edi. Bu partiyaning Samarcand bo'limi boshlig'i Mardonqul Shomuhammadzoda, bi zamonlar "Hurriyat" gazetasining muharriri edi. Behbudiy bilan Qarshida o'dirilgarning biri shu kishidir. Bu uch firqasi bir-birovi bilan talashdarilar. Mitinglarda, yig'inlarda, bir-birovini tangid qilar, yomonlardilar.

uchun tartib berilgandur. Alhaq, tili, uslubi, unda har bir munosabat bilan keltirilan baytlar lazzat beradigan narsadir. Butafsir o'zidan burun yozilgan yuzlarcha tafsirlarning eng muhim nuktalarini ichiga oлган bir qomusdir. Bunday narsaga qanday e'tiborsizlik bilan qaramoq mumkin bo'lib? Hajmi ham katta va ichida Qur'on bor. Har bir oq'liga oлган kishi avval uni o'pub so'ngra ochar va istagan matlab joyini ko'zdan kechirgach, ehtirom bilan yopib, tokchaning yuqorisiga qo'yari va bu kitob turgan tamonga oyog'ini uzatmas!

Shunday ulug' kitobning so'ziga kim e'tibor qilmasin?

So'nngi besh yuz yilning boshlangan oltin davrida yozilgan bu kitob o'tgan besh yuz yilning yakuni va keyingi besh yuz yilning rahbari bo'lub kelgan. Buni varaqlab ko'rsangiz hech bir o'zgarishdan asar bo'lмагan muzlanib-tosh bo'lub qolgan bir ahvloni ko'rasiz. Bir bida emas edi bu hol. Arabiston, Turkiya, Eron, Afg'on, Hindiston hammasi shu holda edi. Balki o'shal yillarning g'arb dunyosi – Yevropa ham ayni shu vaziyatda edi. Galileylarning, koperniklarning ro'zgori ham shunga o'xshar edi...

Behbudiy yosh chog'larida bir yo'l hajga borib kelgan edi. Haj yo'l Rusiya shaharlardan kelib bo'lgan bir ahvloni ko'rasiz. Bir bida emas edi bu hol. Arabiston, Turkiya, Eron, Afg'on, Hindiston hammasi shu holda edi. Balki o'shal yillarning g'arb dunyosi – Yevropa ham ayni shu vaziyatda edi. Galileylarning, koperniklarning ro'zgori ham shunga o'xshar edi...

Turkistonda birinchi qaldird'och bo'lub yangi harakatlarni vujudga kelirg'anlarning bir nechasi shu sayohatlar natijasida bo'libdi. Saidahmad Ajziy, Hoji Muin Shukrullo (Mehriy), Andijonning faol jadidlaridan bo'lgan Hoji Abdullolov shu qatorda yetishganlardandir. Bu odamlar gazetxonik bilan o'zlarini yetishirganlar. Muallim Shakuriy o'zining yangi yo'llillardan xabardor bo'lishi shu o'sha qorilgan qozi, mudarris Isoxo'ja bu tuhmatti rad qilib hukumatdorlarning o'zlarini muqassir deb ko'rsatadir va aytadir: "Bosmachilarning yarog'i va o'q qayerdan chiqadi? Krepostdan chiqadi. Siz oni beribitsangiz bu ishlari bitadi..."

Hajqitan ham bu so'z to'g'ri chiqdi. Bir kuni Samarcandning yangi rastasidan ustig'a o'tin-shox ortqan bir eshkarava o'tib boryapti. Registonga yaqinlashganda aravanning bit g'ildiragi sinib o'tirib qoladi. Uni ko'tarib tiklaganda shoxlarning ostidan miltiqalar, o'q qutisi chiqadi. Aravani haydab borayotgan bir armani yigit ushlamadi. Krepostdan olib chiqayotgani oshildi.

Yana bir kishi hikoya qildi. U zamonlar zargarlik rastasida kitobfurushliklar bor edi. Bir kitob o'konidan kitob sobit oldim. Biri "Ravzat us-safa" tarix kitobi va yana bir lug'at kitobi edi. Ochib qarasami ichidan bir qo'qoz chiqdi, shu so'zlar yozilgan: "Maxdum aka shu qo'qozni olib borang yigit bilan 25/26 adad miltiq va o'qlar yubormog'ingizni iltimos qilaman. Imzo Qori..."

– Men hayron bo'lib qoldim, – dedi u kishi. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, bu Maxdum aka kim ekan va bu Qori... kim ekan. Agar deydi buni hikoya qilgan kishi, shu xat axtarishlar vaqtida mening uyimdan chiqsaydi, men baloga qolardim. Chunki men ham odamlar orasida Maxdum aka laqabi bilan mashhur edim...

Anvar poshoning kelishiga ham shunday unsurlar sabab bo'lgan. Anvar kelganda men Buxoroda edim, bir maktabda mualimlik qilar edi. Bizning maktabga keldi. Ciqraq yoshlariga yaqin, ixchamgina bir yigit edi. Ark maydonida bir mitingda so'z so'zlari. Sala, to'n kiyan edi. O'shal kunlar Sharqiy Buxoroga chiqib ketdi. Sharqiy Buxoroda amirning odamlaridan Ibrohimbek bilan biriga so'zli shaharda qadamlab gadylik qilib, shaharning har burchagi kirib chiqarmishlar. Odamlarning so'zlariga qulq solib shaharda nima voqealar yuz berganini eshitib yuramishlar. Buxoroning arkiga yaqinlashganda u yerda bir vazifa bilan xizmat qilib turgan tog'asimi yoki bir boshqa qarindoshi bilan ko'rushub ahvolotdan xabardor bo'lar ekan. Bu tog'asi kunda bo'lgan voqealarni yozib, Xudoyberdi berar va bu gadolyolar kechqurun shahar darvazasi yopilishidan bururoq chiqib Kogonning qaysi bir buzuq burchaklarida tunar ekanlar. Olib kelgan ma'lumot qo'zozini avvaldan belgilangan bir churuk tut daraxtiga tiqib yashirar ekanlar. Kunda bularning hunari shu bo'lgan.

Sonra bu hunarmand Qarshi shahriga tushadi. Bunda qal'a atrofida va zindon tevarafiga ishlashdi. Buxoroda qo'maqda shahriga tushub qamoqda yotgan bo'ladilar. Xudoyberdi Samarcandda yashagan chog'larida Behbudiyning tanigan bo'lgan. Ularni zindondan chiqarib yortsiposh – ko'chalarni tozalashlarini ko'rgan. Ularga yaqinlashishi ba'zi bir ehtiyojlarini chiqarib turan ekan. Yana bir kuni shularni yeri qazishda ko'rgan. Go'yalar ular bu kun o'z'lari uchun qabr qazarlar ekan. Behbudiy qog'oz-qalam so'rab oladi va bir vasiyatnomasi yozadi. Xudoyberdi bo'lgan yozib, Xudoyberdi berar va bu gadyolalar kechqurun shahar darvazasi yopilishidan bururoq chiqib Kogonning qaysi bir buzuq burchaklarida tunar ekanlar. Olib kelgan ma'lumot qo'zozini avvaldan belgilangan bir churuk tut daraxtiga tiqib yashirar ekanlar. Kunda bularning hunari shu bo'lgan.

Anvar Boysunda urushda o'ldi. Kissasidan "Damadi xalifai muslim

Boshlanishi 1-sahifada.

Qarang-a, bir qarashda ikki talqin ham aslida bir xil, ko'p farqi yo'qday, shunchaki so'zlarining o'mni almashib qolganday tuyuladi. Lekin birinchisi eltuzar, ikkinchisi elbuzar g'oya. Ya'ni, dunyoni yaxshi tomoniga o'zgartirishga xizmat qiladigan g'oya so'zlarining o'mni almashishi bilan dunyoni buzadigan g'oyaga aylanib qolgan. Matematikadagi "Qo'shiluvchilarining o'mni almashgan bilan yig'indi o'zgarmaydi" degan qoida sonlar uchun amal qiladi, lekin so'zlariga to'g'ri kelmaydi. Bunday holatda yig'indi u yoqda tursin, hatto falak ham teskari aylanib ketishi mumkin. Asta-sekin bu fikri omma "Istaganingcha erkin bo'laver, kerak bo'lsa, ma'rifatning o'zi keladi", bora-bora "Erkin bo'lsang bo'ldi, ma'rifat shartmas" qabilida qabul qila boshladi. Xullas, insoniy qadr va erkinlikni faqat ma'rifat berishini nazardan chetga surib tashladilar. Bu hodisa dunyo ma'naviyatini halokatga torta boshladi. G'arbnинг o'zidan, Ovrupo yuragidan chiqqan ma'rifatparvar Rivarolning tashxisidan so'ng ko'p o'tmay G'arb ma'naviy bo'ronlar ichida oladi. Undan u yog'iqa o'tolmaydi. Ularning bo'lgani shu.

Ba'zan ma'rifatlari, chin ma'nodagi erkin, huri fikrli odamlar bilan gaplashib qolaman. Ularga ich-ichingdan havasing keladi, hurnating ulug' bo'ladi. Ularning balandligini, ulug'verligini, katta Insonligini his etasan. Ularni kuzat turib, o'zingni taftish qilib ko'rasan va ba'zi maydakashklaringdan uyalib ketasan. Ma'rifatlari erkinlik odamni yuksakka ko'taradi, Xudoga yaqinlashtiradi, ma'rifsatsiz erkinlik tubanlikka tortadi, shaytonga yaqinlashtiradi. Buni erkinlik deb bo'lmaydi, aslo. Aslo! G'arb bu zolalatning qanchalik jabrini taryotogani dunyoga ayon. Bir jinsli nikohlar, qarigan ota-onani qarovsiz tashlab ketishlari, hayo va ibo, mehr va oqibat tanazzuli, xiyonatlar, xudbinlik va mahdudlik kabi yuzlab illatlar qator xalqlarning tarixiy ildizlarini qurtlatib yubormoqda. Agar hozirgi zamon illatlarini ensiklopediyasi chop etilsa, kamida 10 jild bo'ladiyov. Ba'zi filmlar-u, boshiq adogi yo'q seriallarni ko'rib, bular xiyonat va sotqinlikni, zo'ravonlik va buzuqulikni fazilat deb e'lon qilishmasa go'rga edi, degan o'ya borasan. Shubhasiz, erkinlik buyuk ne'mat, hatto muqaddas ne'mat, lekin u ma'rifat bilan qadrli, ma'rifsatsiz "erkinlik" bema'nillik va buzg'unchilikdan boshqa narsa emas. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi millionlab rasvogarchilik va bachkanalik, behayolik va oldi-qochdilar, fitna-fasod, hatto fahsh va qotilliklar ham erkinlik niqobi ostida namoyon bo'layotgani alam qiladi. Mening bu fikrlarimni to'g'ri tushunishlarigini istardim. Men so'z erkinligini qattiq hurmat qilaman, fikrlar xilma-xilligini juda qoldrayman. Busiz taraqqiyot ham, tafakkur ham bo'lmashagini yaxshi anglayman. Lekin so'z erkinligi bilan ig'vo erkinligining, fikrlar xilma-xilligi bilan shallaqiliklar xilma-xilligining osmon bilan yercha farqi bor. Biz ba'zida fikr nima-yu, vaysaqilq nima ekanini farqolmay qolymapim. Bu gul bilan go'ngning farqiga borolmaslikday gap. Ijtimoiy tarmoqlarda bir to'da o'quvchilarining 60 yashar o'qituvchisini yelkasiga minib urayotgani, Navoiy haykal poyida bir tirraqining dahoni masxaralab kulayotgani, gapiga ilon po'st tashlaydigan bir uyatsiz xotinning sharmandalarcha valaqlayotgani, ba'zan andishali odamlar ustidan mag'zava ag'darilayotgani (sanay-versang adogi yo'ql) – bularni nima deb atash kerak. Erkinlikmi bu, fikrlar xilma-xilligimi?

Shu o'rinda alohida ta'kidash kerak, ijtimoiy tarmoqlarda ba'zan jonkuyar odamlarimizning el-yurt taqdiri, adolat, bizga chetdan bo'layotgan tahdidlar, vatanimiz sha'niga aytidayotgan tuturiqsiz iddaolarga dadil javoblarini, milliy muammolarimiz masalasida samimiy, ilg'or fikrli chiqishlarini ko'ramiz. Lekin ularning ovozini ham bema'ni shovqinlar, og'zi shaloq y'gibatlar bosib ketayotganiga guvoh bo'lamic. Chunki biz o'zimizga nima kerag-u, nima kerak emasligini bilmaymiz. Chunki hamma gapirsam deydi, baqirsam deydi, birov tinglasam demaydi.

Erkinlikning ildizlari ma'rifatdan suv ichadi. Inson erkinligi bilan Vatan ozodligi chambarchas bog'liq jarayondir. Ya'ni, insoniy erkinlikning mas'uliyatini bilmagan odam Vatan ozodligining mohiyatini ham bilmaydi. Rabindranat Tagorning bir gapi hammamizga doimiy dars bo'lishi kerak: "Ozodlikning abadiligini faqat bir narsa ta'minlaydi. U ham bo'lsa ma'rifatdir". Menimchida, eng to'g'ri gap shu. Ma'rifsatsiz ozodlik ozodlik emas.

KATTA PUL DARDIDA

Odamni ma'rifatdan qaytaradigan har qanday narsa uni Xudodan qaytaradigan illatlar bilan bir qatorda turadi.

Jadidlar bizga har ishda mudom ibratdirlar. Ular butun kuchni ma'rifatga qaratdilar. Najotni ma'rifatda deb bildilar. Erkinlik va



SIYMO

O'zbekiston xalq artisti, professor Shuhrat Abbosov o'zbek kino san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli san'ator, o'zbek madaniyatining darg'alalaridan biridir. Milliy kino san'atimizning, milliy teatr san'atimizning, milliy san'at pedagogikasining juda ko'p sahfifari Shuhrat Abbosov nomi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida qirq yildan ortiq pedagogik faoliyatida professor Shuhrat Abbosov yuzlab shogirdlar yetishtirdi. Ular o'zbek madaniyatining turli yo'naliishlarida, xususan, kino san'atida ham hozirgacha qizg'in faoliyat yuritib, soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelyapti. Shuhrat Abbosovning pedagogik faoliyatiga uning bevosita kino san'ati, teatr san'atida orttirgan ulkan tajribalari asos bo'idi, desak, yanglismaymiz.

Shuhrat Abbosov kino san'atida ham, teatr san'atida ham ulkan va betakror iz goldirdi. U dastlab faoliyatini teatr rejissori sifatida boshlab, asosan viloyat teatrlerida diqqatga molik spektakller shahnalashтиrdi. Keyinchalik, ya'ni o'tgan asrning elliqinchi yillardan milliy kinomizga kirib kelib, uning rivoji uchun katta xizmatlar qildi. Shuhrat akaning nomi tilga olinganda, albatta,



O'ZBEK KINO SAN'ATINING DARG'ASI

birinchi navbatda uning o'zbek kinosining mumtoz namunalari aylangan filmlari yodga keladi. "Mahallada duv-duv gap", "Sen yetim emassan", "Toshkent – non shahri", "Muhabbat mojarosi", "Abu Rayhon Beruniy", "Olovli yo'llar", "Katta urushdag'i kichkina odam", "Otaman dolgan dalalar" va "Dilor, Dilor... dil va or" filmlari shular jumlasidan.

Bu filmlar tom ma'noda o'zbek kino san'atining o'lmas namunalari bo'lib qoldi. Ularda xalqimizning uzoq o'mrishi – ming yillar ortidagi fan cho'qilarini egallash yo'lidi tafakkur yolqinlarini namoyon etish davrlaridan boshlab, XX asrda yurtdoshlarimizning dunyo xalqlariga ko'rsatgan insoniy munosabatlari aks ettiriladi. "Toshkent – non shahri", "Sen yetim emassan" filmlarida o'agan asrning taloto'pni, niyoyatda murakkab, o'gir davrlarida O'zbekistonga kelgan ming-minglab yosh bolalarni, dastlab 30-yillarning ocharchilik davrlarida, keyinroq urush yillarda, beayov janglar ketayotgan pallada sobiq sovet hududidagi respublikalardan – Rossiya, Ukraina, Belorussiyadan evakuatsiya qilingan minglab o'ilalarini o'z bag'riga olib, issiq o'rni ni bo'shatib, joy bergan mehridaryo o'zbek millati vakillari haqida hikoya qilinadi.

Shuhrat Abbosov o'z filmlarida xalqimizni butun dunyoga bag'rikeng, saxovatli xalq sifatida, o'zbeklarni munis, mushfiq millat sifatida tarannum etdi. Shu tufayli bu filmlari ko'rgan, undan bahramand bo'lgan dunyoning qaysiki chekkasidagi tomoshabin bo'imasin, o'zbek xalqi haqida yorqin, niyoyatda iliq taassurotlar oladi. Shuhrat aka aynan mana shu xizmatlari bilan ham millatimizga sharaf, e'tibor, izzat olib keldi.

Shuhrat Abbosovning keyingi filmlari, xususan, atoqli adib Said Ahmadning "Ufq" romanasi asosida ishlagan "Muhabbat mojarosi" kartinasini yoki "Katta urushdag'i kichkina odam" deb

nomlangan avtobiografik mazmundagi kartinasini yoxud yana bir taniqli yozuvchi Tog'ay Murodning "Otaman dolgan dalalar" romanasi asosida yaratilgan filmi milliy kino san'atimizning rivoji darajasini pog'onama-pog'ona yuksaltingan asarlar sirasiga kiradi, desak mubolog'a bo'lmaydi. Shuhrat aka o'z asarlarida inson dramasini ham, uning qalb kechinmalarini ham niyoyatda nuktabinlik bilan aks ettirishga muvaffaq bo'lgan ijdor sifatida kinomiz tarixidan munosib o'rinni egallagan. Uning filmlari orqali tomoshabinlarning necha avlod tarbiya topgan, necha avlod o'zbek tomoshabini o'sha asarlar tufayli xalqimizga, milliy san'atimizga, mamlakatimizning ertangi kuniga dildan xizmat qilish tuyg'ularini qalbiga singdirgan.


Shuhrat aka fikr doirasi niyoyatda keng, o'zbek va jahon adabiyotini puxta biladigan chinakam ziyoli inson edi. Uning suhbatidan bahramand bo'lgan odam sira zerikmasdi. Shuhrat akaning noyob fazilatlaridan yana biri – u yunon mumtoz adabiyoti namunalari yoddan bilar, ana shu asarlar haqida soatlab hikoya qilib berishi mumkin edi. Uning bilim darajasi, quvvat-hofzasining kuchlligi pedagoglik faoliyatida, ayniqsa, yorqin sezildi. Shuning uchun Shuhrat akaning atrofida hamisha shogirdlari g'uj'on edi. Umuman, uning faoliyati, insoniy sifatlari haqida yana ko'p fikrlarni aytish mumkin. Lekin Shuhrat Abbosov degan yirik shaxs – milliy san'atimizdag'i o'ziga xos bir ma'naviy hodisaga to'la-to'kis ta'rif berish oson emas.

Shuhrat akaning yorqin xotirasini, uning kinoda yaratgan niyoyatda hayotiy an'analarini hozir ham yashayapti va xalqimiz bor ekan, millatimiz bor ekan, albatta, yashab qoladi.

Shuhrat RIZAYEV,
Kinematografiya agentligi direktori

JAHON MUSIQASI

MAESTROGA MAK TUB



shovullaydi. Balki, u Sizdirsiz. Ruh shunchalar ham yengil bo'larmi, a?

Hayron qolaman, ijdor shaxsini hayotidagi muhitga bu qadar konstrast asarlar yozishi uchun qanchalor mo'ri yoki qadratli bo'lishi kerak! Shu qadar ko'tarinkin, shu qadar yorug', shu qadar o'ynoqi to'lqlinarni topgansizki... Eshitaversam, chalaversam hayotni tobora sevib boraman, to'lqlinana-to'lqlinana ummonga do'naman. Maestro, hayotingizni asral derazasi ortidan hayratlanib kuza-tarkan, qo'llarmini cho'zgancha o'sha ummonga cho'kib ketaman.

He, Motsart, Motsart... Daho bo'lishning badali buncha og'ir? Buyuklik bu – yuk. Shuni ko'tara olishi uchun tanlanganlarning ruhi-yu taniga bir kemtil berilganki, o'rni ni iste'dod bilan to'dirib tugallikka erishadi.

Noraso, noqis falsafalarim bilan Sizniyam boshingizni qotirdimmi? Nima qilay, qancha chuqur ketganim sari dunyodagi barcha ohang-u tovushlarning ostida qachondir dahshatli mangu sunukat sodir bo'lishini sezib qolyapman. Shuning qo'rquvidanmi o'zimni ovutaman, o'sha bo'shliga ham qachondir ovoz yoyiladi, to'lar-ku deb. Etimol unday emasdir. Ammo aniq bilamanki, har qanday tovush, ovoz bu hayot belgisi. Xuddi, Siz haliyam yangrayotganingiz, yashayotganingiz kabi.

Xayol beminnat ulov. Shundoq uyingiz oldiga borib alanglaydi. "Ha, xuddi o'zi!" deyman-u, tushib ichkarilayman. Yo'lakchadan kirakanman, Avstriyaning yuragiday g'ijimlangan partitular uyilib yotadi. Tilla topgandyar sevinib, avaylab

ochaman-da, o'qiyman: "Sonata"... keyingisi: "Messa", bunisi-chi, xo'-osh... "Rekviyem"!

"Rekviyem"? Butun vujudim bilan "farshlag" ga aylanaman. Shu payt klassesi ustidagi sham yorug'ida bir niqobi sharpa lip etib o'tadi.

Tavba-tavba, boqiy yashaydimi?

Yo'q, aslida Siz ketgach, niqobi sharpalarga to'lgan bu dunyo. Asl yuzlar qolmagan hisob. Ana shu ko'rgilik bashariyat insoniyligini ommaviy qabrlarga ko'mishda davom etyapti. Kecha tushimda "Eshoni shahid" mozorida shahid bobonning sag'anasini izlab yurganmishman.

– Otamning qabrimi qay yerga yoshurshing?!

Bot so'yla!..

Birdan Fitrat hazratlari, keyin Cho'lpion, so'ng Qodiriy nafaslari yelganday bo'ldi. Ko'p yig'ilarni eshitgan marvartak tut chayir shoxlari oralab esgan epkin bir ezgin musiqi ko'tardi. Nechukdir, bu sag'ir ohang yana Sizning olis kuylaringizni yodimga quydi. Ajab! Hamma zamonning daholari dardi va nosasi bir xil bo'lurmii? Bugunda minglab salyeri va trig'ulovlarni dog'da goldiradigan nayranglardan qalbimizni qanday asrab qolamiz degan xavotirim bor. Shurukki, javobim ham bor – san'at bilan, ma'rifat bilan! Shu tong bir hikmatni anglab yetdim: umumbashariy daholarning vafot etgan kuni yo'q, faqat tavallud ayyomlari bo'ldi, xolos!

Tug'ilgan kuningiz bilan, Maestro!

Nozima HABIBULLAYEVA

IJOD VA FAN MAJNUNLARI

